

Umumta'lim maktabining 2025-2026- o'quv yili biologiya fanini o'quvchilarining biologiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar varianti

8-__sinf o'quvchisi

F.I.Sh _____

O'quvchi to'plagan umumiy ball: ____ (maksimal ball -35)

I Chorak 1-BSB 1- variant

1-topshiriq (B) 4 ball. Hujayra organoidlari va ularning xususiyatlari o'rtasidagi moslikni toping.

	Hujayra organoidlari	Xususiyati
1	lizosoma	A. hujayra faoliyatida sarflanadigan energiyani hosil qiladi
2	xromosoma	B. oziq moddalarni parchalaydi, biologik faol moddalar saqlaydi
3	endoplazmatik to'r	C. moddalarni to'plash va tarqatish vazifasini bajaradi
4	mitoxondriya	D. bo'linayotgan hujayralarda shakllanib, mikroskopda ko'rinadigan bo'ladi
		E. naychalar va kanalchalar tizimi bo'lib, hujayra qismlarini o'zaro bog'lab turadi

1 _____ 2 _____ 3 _____ 4 _____

2- topshiriq (Q) 8 ball. To'qimalar va ularning funksiyalari haqida berilgan ma'lumotlarni tahlil qiling. Har bir jumlagi mos ravishda "**Ha**" yoki "**Yo'q**" javobini yozing.

1. Muskullar qisqarishi natijasida harakat amalga oshiriladi.
2. Nerv to'qimalari tashqi va ichki muhit ta'sirlarini qabul qilib, ularni o'tkazadi
3. Biriktiruvchi to'qima hujayralari asosan qisqarish xususiyatiga ega.
4. Muskullar faqat vegetativ nerv tizimi tomonidan boshqariladi.


1. _____ 2. _____ 3. _____ 4. _____

3-topshiriq (Q) 6 ball. Jadvaldagi A – C harflari o'rniga mos javobni yozing.

Ichki sekretiya bezlari	Gormonlar
Epifiz	A
B	gonadotrop
Timus	C

4- topshiriq (Q) 7 ball. Aziza shifokorga murojaat qildi. U qovoq (lab) muskullarining pirpirashi, qo'llarining qaltirashi va davriy tutqanoq (sudurgi) holatlari haqida shikoyat qildi. Tahlillar uning qonida kalsiy miqdori me'yordan pastligini ko'rsatdi. Nima uchun Azizaning qonida kalsiy miqdori me'yordan past bo'lishi bunday o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin? Bu holatni tushuntirib bering.

5- **topshiriq (M) 10 ball.** Quyida sog'lom va ayrisimon bez funksiyasi buzilgan bolalarda immun hujayralari (T-limfotsitlar) sonining yoshga bog'liq o'zgarishi tasvirlangan. Ma'lumotlar va bilimlaringizga tayangan holda quyidagi savollarga **"Ha"** yoki **"Yo'q"** shaklida javob bering.



1. 0–2 yosh oralig'ida sog'lom bola va ayrisimon bez funksiyasi buzilgan bola o'rtasida T-limfotsitlar sonida eng katta farq kuzatiladi. _____
2. Ayrisimon bez funksiyasi buzilganda T-limfotsitlar soni keskin kamayadi, bu esa organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini zaiflashtiradi. _____
3. Ayrisimon bez funksiyasi pasayganda T-limfotsitlar hosil bo'lishi kuchayadi. _____
4. Yosh ulg'aygan sari ayrisimon bez funksiyasi buzilgan bolada ayrisimon bez faolligi sog'lom bolaga nisbatan yuqori bo'lib qoladi. _____

Baholash mezoni

Ballar	To'g'ri javoblar	Baholash mezoni
4	1-B 2- D 3-E 4- A	Organoidlar va ularning xususiyatlari o'rtasidagi moslikni to'g'ri topsa: To'g'ri berilgan har bir javob uchun 1 ball Jami: 4 ball
8	1-Ha 2- Ha 3- Yo'q 4- Yo'q	Agar har bir ma'lumotga to'g'ri javob yozilgan bo'lsa 2 ball Jami: 8 ball
6	A- melatonin B- gipofiz bezi C- timozin	Agar epifiz bezi melatonin gormonini ishlab chiqarishi to'g'ri yozilgan bo'lsa 2 ball Gipofiz bezi to'g'ri yozilgan bo'lsa 2 ball Agar timus timozin gormonini ishlab chiqarishi to'g'ri yozilgan bo'lsa 2 ball Jami: 6 ball
7	Qalqonoldi bezlari funksiyasi pasayib paratgormon kam ishlab chiqarila boshlasa qonda kalsiy miqdori pasayib ketadi. Paratgormon qonda kalsiy va fosfor miqdorini boshqaradi. Bu esa nerv – muskul qo'zg'aluvchanligiga ta'sir qiladi. Paratgormon organizm o'sishida muhim ahamiyatga ega. Bu gormon qonda D vitamini bo'lganda sintez bo'ladi. Gormon miqdorining normadan ortib ketishi ham yoki kamayib ketishi ham organizmda salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi	Sababni tushuntirish 3 ball Gormonal boshqaruv bilan bog'lash 2 ball Biologik jarayonlarni ko'rsatish 2 ball Jami: 7 ball
10	1 –Ha 2 –Ha 3 –Yo'q 4 –Yo'q	Ha deb javob bersa — 2,5 Ha deb javob bersa — 2,5 Yo'q deb javob bersa — 2,5 Yo'q deb javob bersa — 2,5 Jami 10 ball
Jami		35 ball